



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYATI
XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI**

**YANGIQO'RG'ON TUMANI
XTMFMTEBga qarashli**

33-umumta'lim maktabi
Ona tili va adabiyoti fani
o'qituvchisi **D.Tursunboyevaning**

**DARS
ISHLANMASI**

MAVZU :
SONLARNING MA'NO GURUHLARI.

I .DARSNING MAQSADI:

O'quvchilarga sonlarning ma'no guruhlari haqida bilim berish.

O'quvchilarga axloqiy tarbiya berish.

O'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

II. DARSNING METODI: suhbat va o'yin.

III . DARSNING JIHOZI:

6-sinf ona tili darsligi.

«Sonlarning ma'no guruhlari» nomli ko'rgazma.

IV .DARSNING BORISH TARTIBI :

Darsda yangi mavzuni o'zlashtirish, topshiriqni bajarishga to'g'ri yo'naltirish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan o'tilgan va yangi mavzu yuzasidan quyidagi savollar asosida **suhbat** o'tkazadi:

Son deb nimaga aytiladi?

Sonlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi? Sizningcha, ma'nosiga ko'ra sonlar qanday turlarga bo'linadi?

So'ng o'quvchilar topshiriq matnidagi sonlarni ma'nosiga ko'ra guruhlaydilar va ularni qatnashtirib gaplar tuzadilar:

N a m u n a : *Bir kun janjal bo'lgan uydan qirq kun baraka ketar.*
(Maqol)

O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa – qilig'i. (Maqol)

O'qituvchi maqollar asosida uyda ota-ona, aka-uka, opa-singillar bilan, sinfda sinfdosh do'stlar bilan inoq, samimiy munosabatda bo'lishning ahamiyatini tushuntiradi.

Mavzuni tushuntirishda quyidagi ko'rgazmadan foydalanish mumkin:

Sonlarning ma'noviy guruhlari

№	Turlari	Misollar
1.	Miqdor sonlar	<i>a) sanoq son Ikki, ikkita, ikkitadan</i> <i>b) taqsim son yuzlab, yuzlarcha,</i> <i>v) chama son uchovlon, uchalasi.</i> <i>g) jamlovchi son ikkidan bir, yarim,</i> <i>d) kasr son nimchorak.</i>
2.	Tartib sonlar	<i>birinchi, uchinchi.</i>

Yangi mavzu mashqlar bajarish asosida mustahkamlanadi. 392-
mashq topshirig'iga ko'ra, o'quvchilar gaplardagi sonlarning ma'nolariga ko'ra taqqoslaydilar va farqini tushuntiradilar.

N a m u n a: *Bizning tomonda bordir.*

Bitta polvon tog',

Olamni chulg'ab nurga

Yoritar har chog'. (P. Mo'min)

Mazkur she'riy parchada qo'llangan *bitta* soni ma'noviy jihatdan sanoq son guruhiga mansub.

393-mashqni «**Kim chaqqon va zukko?**» o'yini tarzida bajartirish mumkin. Bunda o'quvchilar gaplarni nuqtalar o'rniga berilgan sonlardan mosini qo'yib ko'chirish yuzasidan bahslashadilar.

N a m u n a : *Shaharda **bitta** doktorxona bor. (A. Qahhor)*

394-mashqdagi boshqotirma «**Kim zukko va topqir?**» o'yini tarzida hal qilinadi. Boshqotirmaning javobi quyidagicha: 1) o'ttiz; 2) o'n; 3) qirq; 4) to'qson; 5) ikki; 6) yuz.

Mashqlar bajartirilgach, o'qituvchi darslikdagi savol va topshiriqlar asosida darsni mustahkamlash qismini o'tkazadi. Buni «**Kim chaqqon, zukko va topqir?**» o'yini tarzida o'tkazish yaxshi samara beradi.

Ta'tif : Sonlar, narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarining miqdori yoki tartibini bildiradi. Shunga ko'ra sonlar ikki guruhga bo'linadi: 1) miqdor sonlar; 2) tartib sonlar.

BILIB OLING. Miqdor sonlar qanday miqdorni bildirishiga ko'ra sanoq, dona, chama, taqsim, jamlovchi, kasr sonlarga bo'linadi.

392-mashq. Gaplarda ishtirok etgan sonlarni taqqoslang. Ularning farqini tushuntiring.

1. Nihoyat, butunlay holdan toyib, ikkovining qimirlashga ham majoli qolmay, taxtaday qotib turaverishibdi. (Ertakdan) 2. Qulupnayning mevasi naviga qarab, uch-sakson tagacha bo'lishi ham mumkin. (M.Nabiyev) 3. Besh-oltita tinish belgi kelib bugun, o'tkazmoqqa qaror qildi jiddiy yig'in. (Sulton Jo'ra)

393-mashq. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan sonlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Shaharda ... doktorxona bor (Abdulla Qahhor) 2. Shu yaqinda o'tib ketayotgan ... ovchi ularni ko'rib, behad sevinishdi va urishqoqni aravaga ortib ketishibdi. («Ikki bug'i» ertagidan) 3. Biz Turkiston tizma tog'ining etagida, shahardan ... chaqirim naridagi kichkina-qishloqda turar edik. (Po'lat Mo'min) 4. Bu yerlarga egalik huquqini qo'lga kiritganimizning ... yili o'tib bormoqda edi. (Fenimor Kuper) 5. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ham ... og'iz so'zlab o'tsam. (X. To'xtaboyev) ... eksang ... o'rasan. (Maqol)

Birni, o'nni, yigirma besh, ikki-uch, ikkala, birinchi, bitta.

394-mashq. Boshqotirma. Katakarga birdan yuzgacha bo'lgan sonlarni shunday joylashtiringki, o'rtadagi ustunchada to'qqiz so'zi hosil bo'lsin.

1. Uchinchi o'nlik
2. Birinchi o'nlik
3. To'rtinchi o'nlik
4. To'qqizinchi o'nlik
5. O'nlikning ikkinchi soni
6. Yuzlik son

395-mashq. Uyga vazifa. Avval miqdor sonlar ishtirok etgan gaplarni, keyin tartib sonlar ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.

1. Birinchi bor kelganimda Yetti yoshdaydim u choq. Boshqalarga ochgan kabi Ochding menga ham quchoq. O'z bag'ringda ulg'aytirding, Hozir kirdim o'n to'rtga. (Po'lat Mo'min) 2. Birinchi badiiy asarim — «To'rt maktub» hikoyasi edi. (O'. Hoshimov) 3. Rosa o'n olti yil «Toshkent oqshomi» gazetasida bo'lim mudiri bo'lib ishladim. (O'. Hoshimov) 4. Ikki she'r daftarning ikki betida, Bir yonda — aruziy, Bir yonda — barmoq. (E. ohidov)